



DAVR, ADABIYOT VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOLARI

Qozoqboy Yo‘ldoshev,
Pedagogika fanlari doktori, professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206716>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining davrlashtirish masalasi tahlil etilgan. Shuningdek, davr va adabiyot muammolari keng ko‘lamli tarzda muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar. Davr, adabiyot, obraz, davrlashtirish, tafakkur, adabiyottanuv.

Milliy tafakkurda yuz bergan yangilanishlar o‘zbek adabiyoti tarixini tamomila qayta idrok etish va uni ijtimoiy ong hamda adabiyotshunoslik ilmining bugungi yutuqlari darajasiga muvofiq baholash zaruratini taqozo etadi. Davr bilan adabiyotning munosabatlarini aniqlash, masalani “davrning adabiyoti” shaklida qo‘ygan ma‘qulmi yoxud “adabiyotning davri” tarzida qo‘ygan to‘g‘rimi qabilidagi savollarga aniq javob berish zarurati paydo bo‘ldi. Shuningdek, bir davrdagi milliy adabiyotning boshqa davrdagi adabiyotdan yoki adabiyotning bir davrining boshqasidan farqini to‘g‘ri tayin etish singari g‘oyat muhim va ayni vaqtda, o‘ta mushkul masalani hal etish ehtiyoji tug‘ildi.

Bashar ahli asli bir o‘lchamli mangu hodisa bo‘lmish zamoni uch o‘lcham, ya‘ni o‘tmish, hozir va kelajakdan iborat deb hisoblasada, uning na boshi va na oxiri bor hodisa ekanligi tobora teranroq anglab yetilmoqda. Odam abadiy va o‘zgaras zamonning o‘zi davr deb atab olgan o‘tkinchi bir bo‘laginigina muayyan darajada idrok eta olishi mumkinligiga iqror bo‘ldi. Inson o‘z umrini zamon bilan solishtira olmasligini, faqat davr bilan bir qadar bo‘ylashish imkoniga egaligini chuqurroq anglab yetdi.

Umuman, kechgan va kechayotgan har qanday jarayonni davrlashtirish deyilganda tabiat va jamiyatda sodir bo‘lgan o‘sish-rivojlanish yoki tanazzul kechimining muayyan zamoniy oraliqlarda bir-biridan sifat jihatidan farq qiladigan xususiyatlarga ega bo‘lgan turli bosqichlarga bo‘linishi anglashiladi. Shu ma‘noda o‘zbek adabiyoti qanday bosqichlarni bosib o‘tganligini ilmiy jihatdan asosli ravishda ko‘rsatib berish katta ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyot nisbiy tushuncha bo‘lmish davrga xos belgilarning tabiat, jamiyat va odamda namoyon bo‘ladigan o‘tkinchi jihatlarni manguликka muhrlashni ko‘zda tutadigan san‘at turidir. Shu bois hamisha ham adabiyotni muayyan davrlarga

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ajratish, ularni nomlash, taraqqiyotidagi bosqichlarni tayin etish zaruriyati turadi. Ayonki, adabiy davrlarning chegaralari omonat, ularda ayrichalikdan ko‘ra o‘xshashlik belgilari ko‘proq bo‘ladi. Ayni vaqtda barcha ijtimoiy hodisalar singari adabiyot ham o‘z tarixining turli bosqichlarida turlicha sifat-xususiyatlarga ega bo‘ladigan hodisadir. Shu ma’noda, hozirgi o‘zbek adabiyotining ildizi, paydo bo‘lgan vaqti, asosiy belgilari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash millat ilmiy tafakkuri uchun o‘ta muhim yumush hisoblanadi.

Sotsiologik yondashuv sabab sovet adabiyottanuv ilmida doim badiiy adabiyotga davrning adabiyoti tarzida yondashuv ustuvorlik qilgan. Negaki, sho‘ro davrida badiiy adabiyotga mafkuraviy ustqurma debgina qaralgani uchun, albatta, davrdan kelib chiqadigan, unga xizmat qiladigan va o‘zida unga xos jihatlarni aks ettiradigan hodisa, deb hisoblanar edi. Shunga ko‘ra badiiy adabiyotga tarixiy davr va ijtimoiy hayotning estetik in’ikosi sifatidagina qaralardi.

Aslida davr, ijtimoiy hayot, siyosiy tuzum, tarix va badiiy adabiyotning munosabatlari anchagina murakkab o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan hodisalardir. To‘g‘ri, adabiyot muayyan davrda yuzaga keladi, o‘sha davrdagi odamlar tomonidan yaratilib, ularning o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. O‘z tarixi davomida turli o‘zgarishlarga uchraydi, o‘sib-rivojlanadi yoki tanazzulga yo‘liqadi. Lekin bu hol uning davrga fatal ravishda bog‘lanib qolmagan mustaqil badiiy-estetik hodisa ekanini inkor etmaydi. Zero, adabiyot biror-bir davr va undagi odamlarni shunchaki aks ettirish bilangina cheklanib qolmay, o‘sha davrning odamlarida muayyan ruhiy-intellektual xususiyatlarni shakllantiradi ham. Shu ma’noda badiiy adabiyotga qanchalik muayyan davrning mahsuli deb qarash mumkin bo‘lsa, davrga ham muayyan adabiyotning ta’siri borligini ko‘zda tutish kerak bo‘ladi.

Agar ijtimoiy-tarixiy davr muayyan bir hodisa sodir bo‘lib o‘tguncha bo‘lgan vaqt oralig‘ini anglatadigan tushuncha bo‘lsa, universal ma’nodagi davr muayyan etnosning tarixida uzluksiz zamoniy oraliqda yuz bergan hodisalar va o‘shish-o‘zgarishlar tizimini anglatadi. Bu kabi o‘shish-o‘zgarishlar shu zamoniy oraliqda yashab, faoliyat ko‘rsatgan odamlarda va ular tufayli sodir bo‘ladi. Muayyan davrda yashab faoliyat ko‘rsatgan odamlarga xos yetakchi ma’naviy-hissiy xususiyatlar esa ko‘pincha badiiy adabiyot namunalarida aks etadi. Jamiyatdagi o‘zgarishlar odamlar fikru tuyg‘ularidagi o‘zgarishlar tufayli, odamlarning fikru tuyg‘ularidagi o‘zgarishlar esa qaysidir darajada milliy adabiyotda aks etgan timsollar ta’sirida sodir etiladi.



Badiiy adabiyot jamiyatning ilg‘or a‘zolari tafakkuridagi o‘zgarishlarni butun jamiyat ahlining tuyg‘u va tafakkuridagi o‘zgarishlarga aylantiradi, tuyg‘uga ko‘chgan tafakkurning qudrati shundaki, u o‘z tabiatiga ko‘ra, albatta, harakat energiyasiga aylanadi. Chunki tuyg‘ulangan tafakkur yoki boshqacha aytganda, emotsional intellekt hamisha harakatni taqozo etganidan amaliy faoliyatni keltirib chiqaradi. Binobarin, badiiy adabiyotning davrlari borasida so‘z yuritilar ekan, milliy adabiyot tarixining muayyan bosqichida u qanday sabab va omillar ta‘sirida qanday xususiyatlarga ega bo‘lganini aniqlash kerakligi yodda tutilishi lozim.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyoti bosqichlarini aniq belgilash uchun milliy adabiyot o‘z tarixi davomida qanday tub o‘zgarishlarni boshidan kechirganligini hisobga olish lozim. Negaki millat ahli hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy e‘tiqodiy tub o‘zgarishlar tabiiy tavishda etnosning tafakkur va tuyg‘ular tizimini yangilaydi. Badiiy adabiyot esa ana shu yangilanishlar natijasini konkret odamlar ruhiyat dunyosi va taqdiri misolida manguликka muhrlashga urinadi. Tabiiyki, bu jarayonda adabiyotning obrazlar tizimi, ifoda vositalari, janr turfaligi, til xususiyatlari yangilanadi. Zero, tafakkur va ma‘naviy-e‘tiqodiy xususiyatlari yangilangan odamlarga xos jihatlarni tasvirlash uchun ifoda vositalarini ham yangilash taqozo etiladi.

Ulug‘ turk olimi F. Ko‘pruluzoda o‘z fundamental tadqiqotlarida islomga e‘tiqod qilgan turkiylarning hayotida uch buyuk yangilanish yuz berganidan kelib chiqib, bu xalqlar adabiyotini uch ulkan davrga bo‘lish kerakligini ko‘rsatib bergandi. Ulkan olimning ilmiy yondashuviga tayangan holda o‘zbek adabiyoti tarixini ham katta uch davrdan iborat ekanini qayd etish mumkin:

1. Islomgacha bo‘lgan davrdagi turkiy adabiyot.
2. Islom ta‘siridagi turkiy (o‘zbek) adabiyot.
3. Yangi o‘zbek adabiyoti yoki jahoniy ta‘sirlar davri o‘zbek adabiyoti tarzida tasniflash ilmiy mantiqqa muvofiq bo‘ladi.

Adabiyot jamiyat bilan birga mavjud bo‘lsada, uning ko‘tarilish hamda tushish bosqichlari hamisha ham jamiyat taraqqiyoti pog‘onalariga mos tushavermaydi. Chunki, badiiy adabiyot o‘z qonunlari asosida yashaydi. Adabiyot tarixini yuqoridagiday davrlashtirishda ma‘lum darajada xalqning ijtimoiy tarixiga tayanilgan esada, asosan adabiyotning o‘z belgi-xususiyatlariga asoslanilgani ko‘rinadi.

Chunonchi, islomgacha bo‘lgan davrdagi adabiyotning obrazlar olami, mavzu va muammolar tizimi, tasvir vositalari, tili, eng muhimi, olam va odamni idrok etish va tasvirlash tamoyillariga ko‘ra tamomila o‘zgacha xususiyatlari bo‘lgan edi. Bu

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



adabiyot umumturkiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida uzoq asrlar barcha turk etnoslarining o‘rtoq mulki edi. Afsuski, islomgacvha bo‘lgan davrda yaratilgan adabiy yodgorliklar juda kam saqlanib qolgan. Hozircha, asosan O‘rxun-Enasoy toshbitiklari bilan kifoyalanishga to‘g‘ri keladi.

Garchi ushbu yodgorliklar ko‘proq tarixiy batalistik yo‘nalishdagi bitiklar bo‘lsada, ularni badiiyat nuqtai nazaridan tadqiq qilqish mumkin va zarur. Chunki toshbitiklardagi jozibali va ta‘sirchan ifoda tarzi muallifning badiiy iste‘dini yaqqol ko‘rsatib turibdiki, muayyan darajada olamni badiiy idrok etish hamda ifodalash tajribasiga ega bo‘lmagan odam bunday matn tuzishi mumkin emas.

Ayni vaqtda toshbitiklarda voqelikni islomiy yondashuvdan mutlaqo farq qiladigan, qaysidir ma‘noda unga zid keladigan idrok etish tarzi yetakchilik qiladi. Ularda xoqon va lashkarboshilarning qahramonliklari ko‘rsatilar ekan, ularning tutumlariga ezgu ma‘naviy asos topish ko‘zda tutilmaydi. Bosh borni ta‘zim qildirgan, tizzasi borni cho‘kka latgan, xoqoni borni xoqonsizlantirgan, davlati borni davlatsizlantirgan qahramonning bu ishlarga ma‘naviy haqi bor-yo‘qligi hisobga olinmaydi.

Islom ta‘siridagi adabiyotda adabiy an‘analar, obrazlar, tasvir vositalari, badiiy til va, eng muhimi, olam va odamni ko‘rish va ko‘rsatish borasida tayaniladigan asoslar tubdan o‘zgardi. Islom ijtimoiy-siyosiy tafakkurnigina emas, balki axloq, badiiy did va adabiy-estetik qarashlar tizimini ham tubdan o‘zgartirdi. Olam va odam haqidagi tushunchalarga yangi mazmun berdi. Yaratganning biru borligiga ishonchni paydo qildi va mustahkamladi. Ayni paytda, insoniy tuyg‘ularni qardoshlik, birodarlik, o‘zaro xayrixohlik va komillikka intilish anglamlari bilan boyitdi.

She‘riyat badiiy ijodning asosiy turiga aylandi. Vazn, ifoda vositalari, badiiy uslub Kunchiqish poetikasi deb atalgan va asosan fors, arab adabiyoti uchun xos bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘ldi. Islomiy yondashuv bu davr adabiyotining eng muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu davr adabiyotida an‘analar mustahkamligi va sobitligi asosiy xususiyat hisoblanardi. Islom ta‘siridagi adabiyotning obrazlar tizimi, janrlari, tili, tasvir maqsadi tamomila o‘zgacha ko‘rinish kasb etdi.

Bu davr adabiyoti nozik murakkab poetik ramzlar asosiga qurilgan, lirikada gul, bulbul, oshiq, ma‘shuqa, ag‘yor, soqiy, may, mug‘bacha; liro-epik asarlarda gul, bulbul shohlar, malikalar, pahlavonlar, avliyolar, donishmandlardan iborat obrazlar tizimiga ega, tili ilohiy tushunchalar ifodasi bo‘lgan so‘zlarga to‘la adabiyot edi. Lirik qahramonlarning ham, liro-epik asar personajlarning ham asosiy maqsadi Alloh jamoliga etishmoqdan iborat bo‘lardi. Janriy qoliplar o‘ta mustahkam va har qanday

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



badiiy kashfiyot mavjud adabiy an'analar ichida qilinishi talab etilardi. Olam hodisalari va odam tutumlariga faqat islomiy e'tiqod nuqtai nazaridan qaralar, qabul qilinlar va ifoda etilardi. Tabiiyki, badiiy tasvirning ruhi, ifoda yo'sini va vositalari shunga muvofiqlashtirilgan edi. Bu davrda badiiy adabiyot erdagi oddiy maishiy turmush tashvishalridan bir qadar uzoq bo'lib, ko'proq oxirat va oliy jamol yetmoq muammolari bilan mashg'ul edi.

Adabiyotimiz tarixining ushbu bosqichida turkiy etnoslar taraqqiyotining umumiy o'rtoq jihatlari avj nuqtaga ko'tarildi va umumturkiy negizdagi uluslarning ayrimlari alohida millat tarzida shakllana boshladi. Bu hol ularning badiiy tili va o'ziga xos obrazlar tizimi, estetik ideali, adabiy tajribalarga munosabati singari jihatlarda namoyon bo'la boshladi. Turkiy etnoslarning alohida milliy qiyofa kasb eta borishi, ya'ni muayyan bir turkiy ulusning alohida etnik birlik sanalib, o'z maxsus adabiyotiga ega bo'lishini XV-XVI asrlarga to'g'ri keladi, deyish mumkin. Bu davrgacha bo'lgan adabiyot, aslida, qayerda, kim tomonidan yaratilgan bo'lishidan qat'i nazar, yagona umumturkiy adabiyotdir. Shuning uchun ham bu davr adabiyotining egasini ko'rsatishda birgina "turkiy" atamasi yetarli sanaladi.

Turmush tarzini tubdan isloh qilmay turib, davr bilan teng yurish mumkin emasdi. Davr bilan teng yurolmaslik millatni tanazzulga mahkum etardi. Nobop ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma'rifatsizlik, savdo-sotiqning quruqlikdagi karvon yo'li o'rniga suv va temiryo'l orqali amalga oshirilishi kabi omillar o'lka taraqqiyotining sustlashuviga sabab bo'ldi. Xonliklar iqtisodiy qoloqlik domiga tushdilar. Iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatning esa, birinchi navbatda, ma'rifiy jihatdan, shuning oqibati o'laroq, harbiy sohada ham o'zgalardan ortda qolishi tabiiy edi. Millat ahlining jangariligi, dovyurakligi, harbiy salohiyatning yuksakligi tufayligina qudrat kasb etish mumkin bo'lgan davrlar o'tib ketgandi. Endilikda harbiy qudrat askarlarning shaxsiy fazilatlaridan ham ko'ra, yangi qurol-aslaha va zamonaviy urush texnikasida edi.

Ulug' maqsadning yo'qligi, oqibatsizlik, toro'ylik o'lka hukmdorlarini oyoqning tagidan narini ko'rolmaydigan holatga keltirib qo'ygandi. Shu holiga o'lkaning har bir hukmdori o'zini qudratli sanar va hamisha qo'shnilarga qanday yashashni o'rgatish da'vosida yurardi. Turkiston hukmdorlari o'rtasidagi bu kayfiyat atrofdagi bosqinchi mamlakatlarga juda qo'l keldi. Bosqinchilik mayli chegara bilmaganidan "dunyo jandarmi" nomini olgan chor Rossiyasi turkistonlik hukmdorlarning o'zaro kelishmasliklaridan ustalik bilan foydalandi. Bosqinchi siyosatchilar uch xonlikni bir-biriga gij-gijlab, yovlikni kuchaytirdi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran sekinlik bilan bo'lsada, Ovro'podan kirib kelayotgan texnik yangiliklar Rossiya bosiqini natijasida bir qadar tezlashganday bo'ldi. Bosqinchilar o'z hukmronligini mustahkamlash, mustamlaka o'lkaning boyliklarini ko'proq tashib ketish uchun fan-texnikaning ayrim yutuqlarini Turkistonda ham joriy eta boshladi. Ayniqsa, XIX asrning yetmishinchi yillarida o'lkamizga kitob bosish, gazeta-jurnal chop etishning kirib kelishi dunyo ahli bilan axborot almashishni ancha osonlashtirib, turkistonliklarni jahon ahliga yaqinlashtirdi. Ibtidoiy ko'rinishda bo'lsada, Turkistonda sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, xalq hayotiga texnikaning aralashuvi millat ijtimoiy tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ijtimoiy hayotning o'zgarishi, oddiy odamga o'z boshiga tushgan qismatni kechirishi lozim bo'lgan mavjudotgina deb qarashdan tarixning yaratuvchisi, hayotning harakatlantiruvchisi ekani tan olina boshlagani millat ijtimoiy tafakkuriga keskin ta'sir ko'rsatdi. Endilikda olamni islomiy ko'z bilan ko'rish va izohlash bilan birga o'zgacha qarash hamda e'tiqodlar ham bo'lishi mumkinligi anglab yetilgani millat fikrlash tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol milliy ongdagi bir xillikning o'zgarishiga olib keldi. Olam hodisalarini turlicha tushunish va tushuntirish mumkin ekanligi kishilarda fikr hurligiga intilishni uyg'otdi. Aloqalar, axborotlar umumiylikning yuzaga kelishi natijasida millat tafakkuriga tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu hol ijtimoiy fikr taraqqiyotining obyektiv natijasi edi. Shu tariqa, Turkiston o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi.

XIX asrning oltmishinchi yillaridan e'tiboran, o'zbek adabiyotida asrlar mobaynida amal qilib kelingan estetik an'analar buzila boshladi. Badiiy ijod endilikda Alloh bilan sirlashish, ruhiyat nozikliklarini aks ettirish, komil insonga xos sifatlarni ulug'lash, ma'shuqaning azoblaridan yozg'irishdangina iborat bo'lolmasligi anglab yetildi. Shu vaqtgacha ijodkorning Alloh bilan muloqoti mahsuli bo'lgan badiiy adabiyotning avom turmushiga yuz burishi uning tabiatida bir qator jiddiy sifat o'zgarishlari bo'lishini taqozo etardi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda sof maishiy mavzular, tirikchilik muammolari deyarli qalamga olinmasdi. Hayotning tashvishlariga muhabbat mavzusining biror qirrasini munosabati bilan ba'zan yo'l-yo'lakaygina tegib o'tilishi mumkin edi, xolos. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, adabiyot tirikchilik yumushlariga aralashib, ijtimoiy-siyosiy ta'sir ko'rsatish vositasiga ham aylana boshlagach, o'zbek adabiyotida ham publitsistik ruh paydo bo'ldi. Mavzu ko'lamining kengayishi asar qahramonlarini o'zgartirdi. Endilikda yerdagi oddiy odamlar ham badiiy tasvir obyektiga aylanadigan bo'ldi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Qahramonlarning o‘zgarishi natijasida badiiy adabiyotga o‘zga ruh, bo‘lakcha muammo, boshqa hayot yo‘sinini kirib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy til va ifoda tarzida ham tub o‘zgarishlar bo‘lishini talab etdi. Mana shu belgilar *yangi davrning yangi adabiyoti* yuzaga kelganligini ko‘rsatardi.

Agar o‘zbek mumtoz adabiyoti **xoslarning ko‘nglini** poklashga uringan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyoti **ommaning fikrini** uyg‘otishni maqsadga aylantirdi.

Millatning iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy-axloqiy islohotlar jarayonida o‘zini yangilab borishga urinishi natijasi o‘laroq, ham shakli, ham mazmuniga ko‘ra yangi adabiyot maydonga kela boshladi. Ijtimoiy ongning yangilanishi badiiy tafakkurning ham o‘zgarishiga olib keldi. Natijada, ijodkorlar orasida badiiyatga, san‘at asarlariga «*lisoni g‘ayb*» yoxud «*ilohning tajallisi*» tarzida qarash bilan birga uni ijtimoiy dardni aytish vositasi deb tushunish ham qaror topa boshladi. Shu tariqa, san‘at hodisalarini bo‘lakcha tushunish, ta‘sirylanish va tahlil qilish tajribasi yuzaga keldi. Kitob sanoatining paydo bo‘lishi, axborotlarni tez va keng miqyosda yoyish imkoniyatlarining kengayganligi munosabati bilan badiiy adabiyot ta‘sirchan ijodkorning ko‘ngil ishidan kuyunchak ziyolining ijtimoiy faoliyatiga aylana bordi.

Endilikda ijodkorlar avvalgi davrlardagi singari ilohiy go‘zallikni tarannum etishning o‘zi bilan kifoyalana olmay qoldilar. Ular badiiy so‘zning arshi a‘losidan zaminga tushib, qora yerdagi adoqsiz muammolar haqida ham qalam sura boshladilar. Chunki fikri oydin kishilar yuksak rutbali odamning turmushi ham martabasiga yarasha bo‘lishi uchun harakat qilish lozimligini anglab yetgan edilar.

Yangi o‘zbek adabiyotining unchalar uzoq bo‘lmagan tarixini ham umumiy yo‘nalishi, mavzu qamrovi, timsollar tizimi, tasvir vositalari arsenalini, janriy yangilanishlar, ifoda yo‘sinini singari jihatlarga ko‘ra

- a) o‘zbek ma‘rifatchilik adabiyoti;
 - b) o‘zbek jadid adabiyoti;
 - v) o‘zbek sovet adabiyoti;
 - g) o‘zbek egamanlik adabiyoti
- yo‘sinida bir necha bosqichga bo‘lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: Akademnashr, 2018. -456 b.
2. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. -548 b.